ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 15.12.2025 · Accepted: 17.02.2026 · Published: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/tdtj6g18

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Sozandaning rivojlanishida uning dunyoqarashini ahamiyati

(The Importance of worldview in the development of a Creator)

Shuxrat Xolxojayev

Department of Vocal and Instrumental Performance,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: shuxratxolxojayev4@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada sozandaning rivoj topishi hamda yuksalishida uning tabiati va dunyoqarashi hamda tafakkur qilish qobiliyatining nechog‘lik o‘rin egallashi xaqida so‘z yuritiladi. Nafaqat sozanda, balki ijrochidan talab qilinadigan bir narsa borki, uning ijodiy mehnatini samarali va betakror bo‘lishida dunyoqarash kengligi, tafakkur boyligi, tarix va adabiyotni sevishi va unga bo‘lgan xurmat, qolaversa uning tabiatida ham erkinlik, fidoiylik did va estetika, kreativ qarashlar mavjudligi hamda hayotdan zavq olish xususiyatlarini ko‘proq ko‘zga tashlanishi zarurligi asoslab berilgan.

Ushbu mavzuni buyuk darg‘a ustoz Turg‘un Alimatov misolida kengroq yoritishga xarakat qilinadi. U kishini xayotdagi kechinmalari, uzoq taqiq va tanqidlarga qaramasdan sovuqqonlik bilan umid xissi orqali ijodni susaytirmasdan balki yuqori darajalarni ko‘zlab unga erishganliklari xaqida so‘z boradi.

U kishini o‘ziga xos ijro uslubida, yaratuvchanlik qobiliyatida, xar bir musiqaga qayta jon bag‘ishlash talabchanligi hamda taqiq va tanqidlarni sabr bardosh bilan yengib o‘tib yorug‘ kunlarni ko‘rishi hamda dunyo sahnalarigacha yetib borishida aynan insonning xalqchil tabiati, xushchaqchaqligi, dunyoqarashi va tafakkurining katta roli xaqida so‘z yuritiladi. Xulosa sifatida ustozni ushbu jarayonlardan sog‘ omon yetuk xolda chiqib kelib, yanada ijodiy gurkirab dunyo sahnalarini ham zabt etishi xaqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, sozanda, dunyoqarash, tabiat, ijrochi, ijod, betakror, xalqchil, ruhiyat, musiqiy so‘zlashuv.

Abstract

This article discusses the role of a musician’s nature, worldview, and way of thinking in their development and artistic growth. Not only for a musician, but for any performer, there is an essential requirement: in order for their creative work to be effective and unique, they must possess a broad outlook, rich thinking, a love and respect for history and literature. Moreover, qualities such as freedom, dedication,

taste, aesthetics, and the ability to enjoy life should be clearly reflected in their character.

This topic is further explored through the example of the great master Turgun Alimatov. The article highlights his life experiences and how, despite long periods of prohibition and criticism, he remained calm and did not weaken his creative spirit. On the contrary, he continued striving for higher achievements and successfully reached them. Particular attention is given to his unique performance style, creative abilities, and his demanding approach to reviving each musical piece with new life. It also emphasizes how he patiently endured restrictions and criticism, ultimately overcoming them and reaching brighter days, even performing on international stages.

The article underlines that his success was largely due to his people-oriented nature, cheerfulness, broad worldview, and deep thinking. In conclusion, it is noted that the master emerged from these challenges strong and mature, continuing to flourish creatively and conquer world stages.

Keywords: cognition, instrumentalist, worldview, nature, performer, creativity, inimitable, folk, spirituality, musical expression.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль природы, мировоззрения и образа мышления музыканта в его развитии и творческом росте. Не только для музыканта, но и для любого исполнителя существует важное требование: чтобы его творческий труд был эффективным и уникальным, он должен обладать широким кругозором, богатым мышлением, любовью и уважением к истории и литературе. Кроме того, в его характере должны ярко проявляться такие качества, как свобода, преданность делу, вкус, эстетика и умение наслаждаться жизнью.

Данная тема более подробно раскрывается на примере великого мастера Тургуна Алиматова. В статье освещаются его жизненные переживания и то, как, несмотря на длительные запреты и критику, он сохранял спокойствие и не ослаблял свой творческий потенциал. Напротив, он стремился к высоким достижениям и успешно их достиг.

Особое внимание уделяется его уникальному исполнительскому стилю, творческим способностям, а также требовательному подходу к оживлению каждого музыкального произведения. Подчеркивается, что, проявляя терпение и выдержку, он преодолел запреты и критику, достиг светлого будущего и вышел на мировые сцены. В заключение отмечается, что мастер прошёл через все эти испытания, сохранив силу и зрелость, и продолжил активно развиваться в творчестве, покоряя мировые сцены.

Ключевые слова: мышление, музыкант, мировоззрение, природа, исполнитель, творчество, уникальный, народный, духовность, музыкальная речь.

San’at inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifoda etuvchi kuchli vositadir. Bu inson qalbi va tafakkuri hamda dunyoqarashining eng nozik ifodasi bo‘lib, unda ijodkorning ichki dunyosi yaqqol aks etadi. Ayniqsa, sozandalik san’ati – bu nafaqat texnik mahorat, balki ichki kechinmalar, tafakkur va dunyoqarash uyg‘unligidir. Har qanday sozanda o‘z ijrosi orqali nafaqat kuy chaladi, balki o‘zining hayotga bo‘lgan munosabatini, fikrlash tarzini va ruhiy olamini ham namoyon etadi. Shu bois sozandaning rivojlanishida uning dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi.

Avvalo, dunyoqarash sozandaning ijodiy tafakkurini shakllantiradi. Keng fikrlovchi, turli madaniyat va qadriyatlarni anglay oladigan sozanda o‘z ijrosiga yangicha ruh bag‘ishlaydi. U nafaqat musiqiy ijrochilik bilan shug‘ullanuvchi shaxs, balki madaniy estetik did va ruhiy olamni ifoda etuvchi ijodkor xisoblanadi. U oddiy kuylarni ham chuqur mazmun bilan boyitib, tinglovchiga kuchli ta’sir o‘tkaza olish iimkoniyatiga egadir. Aksincha, dunyoqarashi tor bo‘lgan ijodkorlar ijrolari takroriylik va bir xillik ko‘rinishida buladi.

Shuningdek, dunyoqarash sozandaning hissiy ifodasiga bevosita ta’sir qiladi. Hayotiy tajriba, kitob mutolasi, atrof-muhitni anglash va uning uchun qayg‘urish xissi orqali shakllangan qarashlarga ega ijodkor musiqaga bo‘lgan munosabatini boyitib boradi. Masalan, maqomlar va xalq kuylarini ijro etishda ularning tarixiy ildizlari ma’nosi va ruhini tushungan sozanda ularni oddiy takrorlamaydi, balki ularni his etib, o‘ziga xos tarzda jonlantiradi. Unda turli kayfiyatlar – quvonch, iztirob, sog‘inch, g‘alaba yoki umid xissiyotlarini asarda tasvirlab yanada chuqurroq ifodalanadi. Bu esa ijroni yanada ta’sirchan va mazmunli chiqishini ta’minlaydi.

San’at inson qalbiga ta’sir qiladigan kuchli vosita bo‘lgani uchun sozanda o‘z ichki dunyosini ijobiy, fidoiylik tarzida samarali boyitib borishi zarurdir. Shu bois ichki dunyoqarash sozandaning ma’naviy kamolotiga xizmat qilib hissiy ifodasini boyitib, ijodiy yo‘nalishini aniqlab beradi. Musiqa – bu his-tuyg‘ular tili bo‘lib, zamonaviy dunyoda sozanda faqat ijrochi emas, balki tafakkurli shaxs bo‘lishi zarur.

Global madaniyatlar o‘zaro uyg‘unlashib borayotgan bir paytda, sozandaning keng dunyoqarashi unga turli janr va uslublarni o‘rganish va yangiliklarga ochiq bo‘lish imkonini taqdim etadi. Agar sozanda hayotni chuqur his eta olsa, uning ijrosida kuy orqali murakkab hissiyotlarni jonli va samimiy - sog‘inch, armon, quvonch, ilhom kabi tuyg‘ularni yanada aniq va ta’sirchan ifodalay oladi. Bu esa uning professional rivojlanishini tezlashtiradi.

Keng dunyoqarashga ega bo‘lgan sozanda yangiliklardan qo‘rqmaydi, aksincha, tarixi va adabiyotini o‘rganadi, turli madaniyat va san’atlar (musiqiy janrlar) bilan tanishib ularni o‘zlashtiradi hamda o‘z asarlari bilan birga ohanglantirib (kollaboratsiya qilib) ularga qayta qiyofa baxsh etishga intiladi. Qisqasi boshqa xalqlar musiqasini tinglab, zamonaviy uslublarni o‘zlashtirib o‘z ijodiga moslashtiradi. Bu esa uni zamon bilan hamnafas, raqobatbardosh ijodkorga aylantiradi. Chunki, ushbu ijodiy jarayon zamonning yetuk sozandasidan yangilikga intilish va global madaniyatni tushunishni ham talab qiladi.

Keng dunyoqarash sozandaning sahnadagi o‘zini tutishiga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Sozanda chalgan kuyi orqali sahnada o‘zini tutishi, tinglovchi bilan muloqoti, asar ijrosi paytidagi ijro xarakatlari bilan ijodiy maxsulotini teran tasvirlab berad. Estetik did, teran va keng fikrlaydigan sozanda sahnada o‘zini erkin tutadi, tinglovchini hurmat qiladi va ular bilan ruhiy aloqa o‘rnata oladi hamda ularni hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘ladi.

Tor fikrlash doirasiga ega bo‘lgan ijodkor ko‘pincha boshqalarga taqlid qilish bilan cheklanib, asar ijrosi jarayonida maishiy mavzular xayolotida kezib yuradi. Keng dunyoqarashlilik esa sozandaga o‘z yo‘lini topishi, yangi g‘oyalar yaratishi va o‘ziga xos uslubini shakllantirish imkonini taqdim qiladi.

Ozbekiston xalq artisti, professor Turg‘un Alimatovni aytishicha tinglovchi muxlislar tomonidan shunday savol berilgan ekan: “Sizning ijroingizda yangragan kuy-qo‘shiqlar jilosi o‘zgachadir. Har bir ijroingiz tinglovchiga ijobiy ta’sir etmib ruhiy olamga olib kirmay qolmaydi. Shuning sababini tushuntirib bersangiz”

deyishganida, ustoz bu savolga javoban: “Ijrochi san’atkor ijro jarayonida har xil maishiy mavzularga hayoli o‘tib ketishini keskin oldini olgan ma’qul. Balki hayoli asar ijrosida bo‘lsa ijodiy maxsulot ham yoqimli va ta’sirli chiqishi mubolag‘asizdir. Aynan men shu qoidaga qat’iy rioya qilib kelaman” degan edilar.

Shuningdek, dunyoqarash axloqiy va ma’naviy kamolot bilan ham bog‘liq. Sozanda jamiyatning bir qismi sifatida o‘z san’ati va madaniy dunyoqarashi orqali ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Agar uning dunyoqarashi sog‘lom va boy bo‘lsa, u insonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi hamda ruhiyatni ko‘taradigan va tarix va adabiyotni eslatib turuvchi asarlar yaratadi. Aks holda, uning ijodi yuzaki va no tabiiy bo‘lib qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sozandaning rivojlanishida dunyoqarashning o‘rni beqiyosdir. Texnik mahorat qanchalik muhim bo‘lmasin, u keng va chuqur dunyoqarash bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy san’at yuzaga keladi. Har bir sozanda o‘z ustida ishlash bilan bir qatorda, kitob mutolaa qilishi, turli tarix, adabiyot va madaniyatlar bilan tanishishi va hayotni chuqur anglash orqali o‘z dunyoqarashini boyitib borishi lozim. Faqat shundagina u o‘z ijodi orqali inson qalbiga to‘g‘ri yo‘l topa oladigan yetuk san’atkorga aylanadi.

O‘zbek mumtoz musiqa san’atida Turg‘un Alimatov (1922-2008) xalq va professional ijro uslublarini Shobarat tanburchi, Nabi tanburchi, Mulla To‘ychi hofiz, Yunus Rajabiylardan o‘rgangan. II-jahon qatnashchisi (1942-43). urushi Yosh tomoshabinlar teatri (1940-42), Muqimiy teatrida g‘ijjakchi (1943-46), O‘zbekiston radiosi xalq choig‘ular orkestri (1947-52, 1957-59), Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansamblida sozanda (1959-85). 1985 yildan Toshkent davlat konservatoriyasi an’anaviy ijrochilik kafedrasida o‘qituvchi, professor (1994-yildan) [1]. Alimatov dutor, tanbur va sato ijrochiligini mukammal o‘rganib, o‘ziga xos ijro uslubini yaratdi. Ustoz mumtoz musiqa san’atining eng yirik namoyondalaridan biri bo‘lib, alohida mavqega ega bo‘lgan ulkan ijodkor sifatida, tanbur, dutor, sato, gi’jjak cholg‘u ijrochisi hamda sayqallovchi bastakor sifatida

uning ijodiy shakllanishi va yuksalishida dunyoqarash muhim va xal qiluvchi rol o‘ynagan. Uning ijodiy kamolotiga nazar tashlar ekanmiz faktlar shuni ko‘rsatadiki, faqat tabiiy iste’dod yoki texnik mahorat emas, balki keng va teran dunyoqarash ham muhim turtki bo‘lganini yaqqol ko‘rish mumkin.

1. Ustoz shogird an’anasi va dunyoqarash shakllanishi.

Avvalo, u kishi musiqani xalq orasida, ustozlar davrasida o‘rgangan. O‘z davrining yetuk san’atkorlari bilan muloqotda bo‘lib, nafaqat ijrochilik sirlarini, balki maqom san’atining falasafiy asoslarini ham o‘zlashtirgan. Bu esa tabiiy kishini dunyoqarashini kamolotga yetaklaydi. Shu bois maqomni nafaqat kuy, balki ma’naviy meros sifatida anglab yetgan [2]. Natijada u kishining ijrosidagi asarlar ohanglanishi ichki mazmuni bilan ochib berilgandek.

2. Bir necha cholg‘u ijrochilik san’ati – keng tafakkurlik belgisi.

Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida o‘zining benazir san’ati bilan xizmat qilib dovrug‘ qozongan sozanda Xo‘ja Abdulqodir tanburning shirvoniy turkiy turlari bilan bir qatorda nay tanbur deb nomlanuvchi turi ham mavjudligini eshitganmiz. Bu cholg‘u “sato” deb nomlanadi. Turg‘un Alimatov tomonidan sato cholg‘usini qayta kashf etish va tiklash davri o‘ziga xos voqelik bo‘ganligi hamda bu bevosita falasafiy yondashuv maxsuli bo‘lib, bu cholg‘uni yana ommalashtirgan ijodkor kashfiyotchi sifatida satoni ushbu jarayongacha har bir detaliga o‘zgartirish va qo‘shimchalar olib kirdilar va yangi avlodga yetkazdilar. Sato – qadimiy murakkab cholg‘u bo‘lib, uni ijro etish yuqori mahorat va sabr talab etadi hamda ustozni bu cholg‘uni qayta tiklashi faqat texnik qiziqish emas, balki tarixiy va madaniy merosni anglash va unga chuqur xurmat bilan e’tibor qilganliklari isbotidir. Ustoz nafaqat tanbur, balki dutor, sato, g‘ijjak cholg‘lari mohir ijrochisi bo‘lib, yangilik sifatida ushbu cholg‘ularni bir o‘zlari sinxron tarzda (ustma-ust) ijro qilib cholg‘u ansambli ijodi tarixida katta va o‘chmas yangilik kashf etganlar [4]. Turli cholg‘ular imkoniyatlari bilan qiziqish va o‘zlashtirish u kishining ijodiy

fikrlashlarini boyitib yangi ranglar olib kirgan. Eng muhimi bu cholg‘ularda qaytarilmas asarlarni yaratib ijro qilganlar va dunyo sahnasigacha yetib borganlar.

3. Ijro uslubining o‘ziga xosligi.

Turg‘un Alimatov ijrosi boshqa sozandalardan keskin farq qilib, asosan sokinlik, teranlik, chuqur gapiruvchi ohanglarga boyligi mavjudligi kuzatiladi. Mutaxasislarni fikricha bu “falsafiy va ruhiyat ijro maktabi” bo‘lib, tinglovchi eshitish jarayonida asar bilan suxbat qurishi va fikrlar qabul qilish mumkin [3]. Qisqasi tabiiy ruhiy suhbat olamiga sayohat qilish holati yuz berishi mumkindir. Taqqoslash uchun:

- Oddiy ijrochi – texnika, melizm, tovushlar ketma – ketligi.
- T. Alimatov - ma’no, falsafa, tafakkur, har doim yangi ranglar, chuqur tarix ildizi tasviri, ruhiy holat (musiqiy ruhiy aloqa).

4. Xalqaro tan olinish.

Turg‘un Alimatov dunyoqarashi milliy doiradan chiqib, umum insoniy darajaga ko‘tarilganligi va turli xalqaro sahnalarda chiqish qilib, o‘zbek mumtoz musiqasini dunyoga tanitgani bois yuksak baholangan [2]. Baho beruvchilar ichida nafaqat musiqa shunoslar va musiqa ixlosmandlari bor balki, tibbiyot sohasi vakillarini ham mavjudligi hamda ular o‘z bemorlari uchun T. Alimatov ijrosi musiqalarini tinglashni tavsiya etishlari e’tiborni tortadi.

5. Sayqallovchi bastakorlik faoliyati

Turg‘un Alimatov nafaqat ijrochi balki sayqallovchi bastakor ham bo‘lganligi sir emas. Ijodini umumiy qismi chuqur xissiy va falsafiy mazmunga ega bo‘lib, xoh sho‘xchan, xoh o‘ychan kuy bo‘lsin, asarlarga qayta jon bag‘ishlab, qaytarilmas ohang qiyofasini muhrlab, tinglovchi e’tiborini qozonganlar. Bu shuni anglatadiki, yaratish – bu faqat texnika va sayqal emas balki, tafakkur maxsulidir. Shu xislar borligi hamda uning amaliyoti qilinayotgan ishda samimiy hamda chuqur ma’noli maxsulot yaratilishiga sabab bo‘ladi.

Qolaversa Turg‘un Alimatovning xayotiy dunyoqarashi (tabiati) o‘ta o‘ziga ishongan va hayotda uchrovchi ko‘plab mayda negativ holatlarga ko‘z yumuvchi inson sifatida hamda o‘ta xushchaqchaq va xazilni xush ko‘ruvchi inson bo‘ganliklari, xayotni xar bir laxzasidan kerakli zavq va saboqlarni oluvchi inson bo‘lganliklari va u kishining maqom san’atiga bo‘lgan teran yondashuvlarida namoyon bo‘ladi. U kishi Shashmaqom an’analarini falasafiy mohiyatini maqom ansamblidagi ish faoliyatida, Muqimiy teatridagi buyuk darg‘alar bilan bo‘lgan ish davrida chuqur o‘rganib anglagan. Bu esa u kishiga har bir maqomni oddiy ijro sifatida emas, balki ruhiy kechinmalar ifodasi sifatida talqin qilish imkonini bergan. Uning ijrosida kuylar - jonlanadi, tinglovchi esa undagi nozik ma’nolarni his qiladi. Bu darajaga esa faqat keng dunyoqarash falsafasi orqali erishish mumkin.

Ustozning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida qolaversa tarixan og‘ir davrlarni boshidan kechirgan ijodkor inson sifatida shakllangan. U kishi nafaqat o‘zbek musiqasini, balki Sharq va jahon madaniyatini ham chuqur his etgan san’atkor edi. Shu bois ularning ijrosida milliylik bilan bir qatorda umuminsoniy ruh ham sezilib turadi. Bu esa u kishini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosga ham olib chiqqan va tanitgan.

Turg‘un Alimatovning dunyoqarashi uning ijodiy mustaqilligini ta’minlagan bo‘lib u an’anaviy ijrochilikni shunchaki qayta takrorlamay, balki o‘ziga xos va qaytarilmas uslub yaratdi. Uning tanbur chalish uslubi nihoyatda nafis, chuqur va falsafiy bo‘lib, boshqa sozandalardan yuqori ko‘rsatgichda ajralib turadi. Tanburning bazi nolalarini usuldan xoliroq tarzda jonlantirish kishiga o‘zgacha xuzur baxsh etadi – deb xitob qilgan edilar ustoz. Bu esa keng fikrlash, yangilikka intilish va san’atni chuqur anglash natijasidir.

Shuningdek, uning hayotiy tajribasi ham dunyoqarashini boyitgan. U kishini xayotdagi kechinmalari, o‘tgan davr musiqachilari tomonidan doimiy tanqidiy qarashlar va nazar bilan e’tirof etish holatlari, uzoq ta’qiq va tanqidlarga qaramasdan sovuqqonlik bilan umid hissi orqali ijodni susaytirmasdan, balki yuqori

darajalarni ko‘zlab unga erishganliklari e’tirofga sazovordir. Aksincha, ulug‘ vatan urushi yillarida o‘zbek xonanda-sozandalari bilan konsert brigadalari tarkibida frontlardagi jangchilarimizga, gospitallardagi yaradorlarga, front ichkarisidagi mehnatlari bilan g‘alabani taminlayotgan xalqimizga madaniy xizmat qilishdan charchamaganlar. Turli bosim ostidagi hayotiy davr, II-jahon urushi va a’lo mehnatga yarasha past nazar bilan qarash va baholanishlar, sababsiz taqiq munosabatlarini boshdan kechirgan hamda ustozlardan saboq olgan va shogirdlar yetishtirgan san’atkor sifatida musiqaga hayot falsafasi sifatida qaragan. Shu sababli uning ijrosi oddiy texnik namoyish emas, balki ichki kechinmalar ifodasiga aylangan. Hayotda sozandalar faqat o‘rganilgan kuylarni ijro etsa, Turg‘un Alimatov esa ularni qayta “yaratgan”. Aynan shu omil uning san’atini yuksak darajaga olib chiqib, uni o‘zbek musiqa tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk sozandalardan biriga aylantirgan.

Yuqoridagi faktlarga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkinki, Turg‘un Alimatov faqat texnik sozanda bo‘lganida, u shunchaki mohir ijrochi bo‘lib qolardi. Ammo uning keng dunyoqarashi sabab maqomlar va mumtoz musiqani chuqur talqin qildi. Sato cholg‘usini tiklab katta tekshiruv va kashfiyotchilik olib borib unga qayta jon baxsh etdi. Tinglovchilarga yangi cholg‘udan yangi asarlar taqdim etdi. O‘z uslubini yaratdi va shogirdlarga ulashdi. Xalqaro darajada tanildi. Ushbu jarayonlarda u kishini tafakkuri va dunyoqarashlari nechog‘lik o‘rin egallaganligini e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimboyeva K., Yo‘ldoshboyeva T., Axmedov M., Mirzayev T. O‘zbekiston xalq sozandalari: II kitob. – Toshkent, 1974.
2. Qosimov R. An’anaviy tanbur ijrochiligi. – Toshkent, 2002.
3. Xolxo‘jayev Sh. An’anaviy tanbur ijrochiligida Turg‘un Alimatov ijro uslubi // San’at jurnali. – 2020. – S. 21.
4. Umarov A. Tanbur navolari. – Toshkent, 1996.
5. Zufarov A. An’anaviy tanbur. – Toshkent, 2022.

References

1. Olimboyeva, K., Yo‘ldoshboyeva, T., Axmedov M., and Mirzayev T. *O‘zbekiston xalq sozandalari: II kitob* [Folk Instrumentalists of Uzbekistan: Book 2]. Tashkent, 1974. (in Uzbek)
2. Qosimov, R. *An’anaviy tanbur ijrochiligi* [Traditional Tanbur Performance]. Tashkent, 2002. (in Uzbek)
3. Xolxo‘jayev, Sh. “An’anaviy tanbur ijrochiligida Turg‘un Alimatov ijro uslubi” [The Performance Style of Turg‘un Alimatov in Traditional Tanbur Performance]. *San’at jurnali*, 2020. (in Uzbek)
4. Umarov, A. *Tanbur navolari* [Tanbur Melodies]. Tashkent, 1996. (in Uzbek)
5. Zufarov, A. *An’anaviy tanbur* [Traditional Tanbur]. Tashkent, 2022. (in Uzbek)